



**QURUQLIK BILAN O‘RALGAN O‘ZBEKISTONNING XALQARO
BOZORGA MAHSULOT YETKAZIB BERISHDA DUCH KELAYOTGAN
LOGISTIK MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

39a-24 Logistika guruh talabasi

Qilichova Muxlisa Yunus qizi.

mqilichova06@gmail.com

O‘zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgani uchun uning bevosita dengiz portlariga chiqish imkoniyati yo‘q. O‘zbek tovarlari xalqaro savdoga chiqish uchun bir necha davlatlarning chegarasidan o‘tishi lozim. Bu esa ortiqcha xarajat va muammolarni keltirib chiqadi. Davlatimiz quruqlikda joylashgani uchun biror mahsulotini chetga suv yo‘li orqali chiqarmoqchi bo‘lsa, yukini olib o‘tadigan davlatlarning transport infratuzilmasiga bog‘lanib qoladi. Bu esa yuk yetib borishi yoki kelishidagi kechikishlarni yuzaga keltiradi. Bunday muammosi bor davlatlar dunyoni 39 tani tashkil qiladi. Transport xarajatlari yuqori bo‘lgandan keyin eksport qilinayotgan mahsulotlarning narxi oshadi va ularning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligi pasayadi. O‘zbekistonning ichki transport tuzulmasi ham xalqaro savdo talablariga javob bermaydi. Ular modernizatsiyaga muhtoj , sababi yo‘l tarmoqlarining ko‘plab qismi eskirib qolgan. O‘zbekiston tranzit mamlakatlar bilan hamkorlikdagi harakatlarni kuchaytirish va xalqaro hamkorlik loyihalarida faol ishtirok etishi lozim. Xalqaro savdo yo‘llariga kirish, O‘zbekiston uchun logistika xarajatlarini kamaytirish va iqtisodiy o‘lishni tezlashtirishga imkon yaratadi. O‘ylashimiz mumkinki, o‘sha tovarlarni xalqaro savdoga boshqa usulda, ya’ni suv yo‘li orqali emas balki, havo yo‘llari orqali chiqarsa ham bo‘ladi deb, biroq havo orqali tashish juda qimmat, suv orqali tashish eng arzon tashuv hisoblanadi.



O'zbekistonning xalqaro savdo bozoriga raqobatbardosh mahsulotni kam xarajatlar orqali chiqarishi uchun, davlatimiz transport va bojxona sohalarida raqamli hamkorlikni kuchaytirishi lozim. Geografik joylashuvi xalqaro savdoda turli qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, lekin bu cheklovlarni ko'ptarmoqli transport tizimini takomillashtirish orqali hal qilish mumkin.